

## REZERV VA ZAXIRADAGI OFITSERLARNI TAYYORLASHDA TEXNOLOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

*Saparov Bobir Xudayberdievich*

*Dotsent podpolkovnik. O‘zbekiston Milliy universiteti*

*Harbiy tayyorgarlik o‘quv markazi*

*Maxsus tayyorgarlik sikli boshlig‘i*

*E-mail: bobirsaparov2@gmail.com*

*Tel.: +998 (90) 912-65-01*

*Tel.: +998 (90) 912-65-01*

**Аннотасија.** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari bo'lajak rezerv va zaxiradagi ofitserlarlarining texnologik kompetentligini rivojlantirishning dolzarb muammolari va ularni hal etish yo'llari ko'rsatilgan. Shuningdek, maqolada rezerv va zaxiradagi ofiserlarni tayyorlashda texnologik kompetentligini rivojlantirish hamda axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan savodxonlik darajasining oshirish yuzasidan fikrlar yuritilgan.

**Tayanch so'zlar:** bo'lajak rezerv, zaxiradagi ofitser, mustaqil ta'lim, oliy harbiy-ta'lim muassasasi, harbiy xizmatchi kasbiy va texnologik kompetentlik, rivojlantirish.

## РАЗВИТИЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПРИ ПОДГОТОВКЕ ОФИЦЕРОВ И ОФИЦЕРОВ ЗАПАСА БУДУЩИХ РЕЗЕРВОВ И ОФИЦЕРОВ В ЗАПАСОВ

Дотцент подполковник Сапаров Бобир Худайбердиевич

Начальник цикла специальной подготовки учебного центра Военной подготовки Национального университета Узбекистана

E-mail: [bobirsaparov2@gmail.com](mailto:bobirsaparov2@gmail.com)

Тел.: +998 (90) 912-65-01

**Аннотация.** В данной статье показаны актуальные проблемы развития технологической компетентности будущих офицеров запаса и офицеров запаса высших учебных заведений Республики Узбекистан и пути их решения. Также в статье рассматривается развитие технологической компетентности при подготовке офицеров запаса и офицеров запаса, а также повышение уровня грамотности в области информационно-коммуникационных технологий.

**Ключевые слова:** будущий запас, офицер запаса, самостоятельное образование, высшее военное учебное заведение, профессионально-технологическая компетентность военной службы, развитие.

## DEVELOPMENT OF TECHNOLOGICAL COMPETENCE IN THE TRAINING OF RESERVE AND RESERVE OFFICERS

---

Associate Professor Lieutenant Colonel Saparov Bobir Khudaiberdievich

Head of the special training cycle of the Military Training  
Training Center of the National University of Uzbekistan

E-mail: bobirsaparov2@gmail.com

Tel.: +998 (90) 912-65-01

**Abstract.** This article shows the current problems of developing the technological competence of future reserve and reserve officers of higher educational institutions of the Republic of Uzbekistan and ways to solve them. Also, the article discusses the development of technological competence in the training of reserve and reserve officers, as well as increasing the level of literacy in information and communication technologies.

**Key words:** *future reserve, reserve officer, independent education, higher military educational institution, military service professional and technological competence, development.*

**Kirish:** Hozirgi kunda harbiy ta'lim sohasiga zamonaviy bilim, ilg'or xorijiy tajribalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish asosida bo'lajak rezerv va zaxiradagi ofitserlarning bo'lajak texnologik kompetentligini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xalqaro miqyosda harbiylarning kompetentlik darajasini rivojlantirish va baholash strategik ahamiyat kasb etib, harbiy ta'lim tizimini modernizatsiyalash, ijtimoiy muhit talablariga integratsiyalash, kompetensiyalarga asoslangan davlat ta'lim standartlarini joriy etish, oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi ilg'or innovatsion mexanizmlarni ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Sh.M. Mirziyoyev o'zining "Yangi O'zbekiston strategiyasi" kitobida "...Ta'lim sohasining yana bir eng asosiy vazifasi bugungi kun uchun zarur bo'lgan yangi avlodni, ilm-fan va o'z ixtisosligi asoslarini puxta egallagan, bilimli yoshlarni tarbiyalashdan iboratligi shubhasiz...", - deb ta'kidlagan.

Asosiy qism: Bo'lajak rezerv va zaxiradagi ofitserlarning xalqaro standartlar asosida texnologik kompetentligini rivojlantirish, ularda strategik mobillik, harbiy vatanparvarlik, millatlararo bag'rikenglik, tolerantlik tafakkurini hamda ijodiy fikrlashni rivojlantirish masalalari hal etilmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak rezerv va zaxiradagi ofitserlarning texnologik kompetentligini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish harbiy ta'lim tizimini modernizatsiyalash, eng ilg'or innovatsion yondashuvlarga asoslangan davlat ta'lim standartlarini joriy etish, o'quv

jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning imkoniyatlaridan keng ko'lamda foydalanishni yangi sifat darajasiga ko'tarishni talab etmoqda. Mamlakatimizda olib borilayotgan harbiy islohotlar tufayli Qurolli Kuchlarimiz uchun yuqori malakali mutaxassislarni, yuksak intellektual, ma'naviy-axloqiy salohiyatga ega bo'lgan rezerv va zaxiradagi ofitser kadrlarni tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. "Ayni vaqtda, aytish joizki, ko'rilayotgan chora tadbirlarga qaramasdan, harbiy kadrlarni tayyorlash tizimi zamon talablariga to'liq javob bermaydi,...harbiy o'quv yurtlarida zamonaviy shart-sharoitlarni xo'jako'rsinga yaratganimiz yo'q.... Aksincha, kursantlarimiz va tinglovchilarimiz ta'lim sohasida eng ilg'or, innovasion bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi zarur. Mana, bizning asosiy maqsadimiz" [1]. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida ham "oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, O'zbekiston Respublikasining konstitusiyaviy tuzumi, suvereniteti, hududiy yaxlitligini muhofaza qilish, fuqarolik, millatlararo va konfessiyalararo tinchlik hamda totuvlikni mustahkamlash, davlatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining jangovar qudrati va salohiyatini oshirish" kabi muhim vazifalar belgilangan.

Hozirgi kunda yuqori darajada kasbiy mahoratga ega bo'lgan ofitser kadrlarni tayyorlash bo'yicha tayyorgarlik tizimining turli ko'rinishlari va strategiyasi mavjud bo'lib, zamonaviy armiya, harbiy kadrlar ta'minot tizimining shartli elementlari mutaxassislarning ma'lumoti va ilmiy darajasiga bog'liq bo'lib qoldi. Harbiy kadrlarni tayyorlash tizimi har bir mamlakatning o'z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, turli xil ko'rinishda amalga oshirilib, dunyoda yuzaga kelayotgan harbiy siyosiy vaziyatga qarab takomillashtirilib borilmoqda. Mamlakatda safarbarlik e'lon qilinganda, qurolli kuchlarni harbiy holatdagi shtat bo'yicha ofiserlar bilan to'ldirish uchun barcha qurolli kuchlar tizimida rezerv va zaxiradagi ofitserlarni tayyorlab borish yo'lga qo'yilgan.

Butun dunyoda kuzatilayotgan pandemiya ham respublikamizdagi ijtimoiy tizimning barcha jabhalariga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatdi. Jumladan, mudofaa tizimi, iqtisod, xizmat ko'rsatish, tibbiyot, ta'lim tizimi, shaxslar tafakkurida ham tizimli o'zgarishlar sodir bo'ldi. O'zbekiston, dunyoning aksariyat mamlakatlari singari, hayotning barcha sohalarida bilim, fan, texnika va axborotning muhim roli bilan ajralib turadigan boshqa texnologik inqilob, yangi sivilizasiyaning paydo bo'ldi. Yangi O'zbekistonning rivojlanishi va uning taraqqiyoti, shuningdek, Uchinchi Renessans taraqqiyoti va strategiyasining istiqboli uchun poydevor qo'yishimiz bugungi kunning o'ta muhim masalalaridan biridir. Zero, hozirgi jadal sur'atlar bilan shiddat bilan o'zgarayotgan jamiyatda O'zbekiston uchun an'anaviy iqtisodiyotni imkon qadar zamonaviy axborot, intellektual, raqamli iqtisodiyotga aylantirish juda muhim masalalardan biri sanaladi. Shu bilan bir qatorda, bugungi kunda qurolli kuchlarimiz tarkibini sifat jihatidan butunlay o'zgartirish va ularni bugungi kun talablariga javob

beradigan zamonaviy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan bo'lajak rezerv va zaxiradagi ofitserlarni tayyorlashdir. Shu boisdan oliy harbiy ta'lim muassasalari faoliyatini texnologik kompetentlik yondashuv asosida yanada jadallashtirish zarurati ko'zga tashlanmoqda. Shundan kelib chiqib, bo'lajak rezerv va zaxiradagi ofiser kadrlarni tayyorlash sohasida olib borilayotgan tizimli o'zgarishlar asosida oliy harbiy ta'lim muassasalari bo'yicha texnologik kompetentligini mustaqil ta'lim jarayonida rivojlantirishni taqozo etmoqda.

Zamonaviy texnologik kompetentlik ofiserning mahorati faqat darslikda mavjud bo'lgan bilimlari bilan cheklanmasdan, bo'lajak rezerv va zaxiradagi ofitserlarga mantiqan fikrlashga o'rgatishdir. Chunki globallashtirish jarayonida axborotlar oqimining tez sur'atlar bilan kengayib borayotgani va texnika taraqqiyotida bo'layotgan o'zgarishlar yangiliklar kursant va tinglovchilarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan savodxonlik darajasining oshib borishi barcha ma'lumotlar faqat dars jarayonida ular ongiga singdirish imkoniyatini bermaydi, ushbu masalani optimal hal etishning asosiy shakli mustaqil ta'lim hisoblanadi. Shu jumladan, eng asosiysi, bo'lajak rezerv va zaxiradagi ofitserlarning texnologik kompetentligini oshirishda turli texnika va texnologiya vositalaridan bema'lol foydalana olishlari uchun, avvalo, qulay sharoit hamda imkon yaratish, shuningdek, yetarlicha bilim va ko'nikmalarini amalga oshirish muhim sanaladi.

Texnologik kompetentligini rivojlantirishning innovatsion yondashuv asosida o'qitishning maqsadi tinglovchilarning intellektual, kommunikativ, texnologik va ijodiy qobiliyatlarini, fikrlash usullarini rivojlantirish, bilim, ko'nikma, malakalari, bir so'z bilan aytganda, texnologik kompetensiyalarini shakllantirishdan iborat. Yuqorida bayon etilgan maqsadlar asosida texnologik kompetentlik innovatsion yondashuv asosida o'qitishning quyidagi vazifalari belgilandi: o'quv-tarbiya jarayonini maqbullashtirish, o'qituvchi va o'quvchining hamkorligi uchun shart-sharoitlar yaratish, o'quvchilarda o'qishga doimiy ijobiy munosabat shakllantirish, ularni kreativ faoliyatga jalb etish, o'quv materiallarni va uni uzatish usullarini to'g'ri tanlash. Texnologik kompetentlik innovatsion yondashuv asosida o'qitishda rivojlantiruvchi, muammoli o'qitish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, o'qitishga yangicha yondashuv, darsda muvaffaqiyatga erishish uchun sharoit yaratish va boshqalar yotadi. Innovatsion yondashuv asosida o'qitishning asosiy tamoyillari kreativlik (ijodkorlikka yo'nalganlik); tizimdagi bilimlarni o'zlashtirish, darslarning noan'anaviy shakllari, ko'rgazmalilik metodidan foydalanishdan iborat [4].

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak rezerv va zaxiradagi ofitserlarning texnologik kompetentligini rivojlantirish darajasiga sezilarli ta'sir etuvchi asosiy omillar tizimli tahlil asosida aniqlanadi. Texnologik (rasmiy, tezkor-taktik va maxsus vazifalarni rejalashtira olish tajribasi; zamonaviy qurol-aslahalardan samarali foydalanish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish ko'nikmalari);

diagnostik (jangovar va yakka tartibda bajariladigan vazifalar sifatini obyektiv va ishonchli baholash tizimidan foydalanish; tayyorgarlikning barcha bosqichlarida texnologik kompetentlikni takomillashtirishning uzluksiz diagnostikasini amalga oshirish; bo'lajak ofitserlarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirish darajasini baholashda test usullaridan foydalanish va boshqalar); muhim xizmat vazifasi (bo'lajak rezerv va zaxiradagi ofitserlarda psixologik va axloqiy tarbiyaning yuqori darajasi, ma'naviy-axloqiy, kuchli iroda va vatanparvarlik fazilatlarini; muloqotchanlik, ijodkorlikning zarur darajada rivojlanganligi va boshqalar) shular jumlasidandir. Belgilangan asosiy omillarning o'zaro bog'liqligi va ta'sirining baholanishi bo'lajak rezerv va zaxiradagi ofitserlar o'rtasida kasbiy bilimlarni takomillashtirish uchun zarur pedagogik va psixologik shart- sharoitlarni yaratishni ta'minlaydi.

Shu nuqtai nazardan, bo'lajak rezerv va zaxiradagi ofitserlarning texnologik bilimlarini rivojlantirish quyidagi zarur pedagogik va psixologik shartlarni vujudga keltiradi. Bular: zamonaviy fanlar bo'yicha maxsus bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlarida yuqori darajadagi motivatsiyani shakllantirish; bo'lajak rezerv va zaxiradagi ofitserlarning mustaqil o'zlashtirish faoliyatini faollashtirish imkonini beruvchi usullarni qo'llash; harbiy sohada xizmat ko'rsatishda muhim shaxsiy sifatlarini faol rivojlantirish usul va vositalaridan to'g'ri foydalanish; tashkiliy boshqaruv vazifalarini, turli topshiriqlarni va tezkor-taktik vaziyatlarni hal qilish tajribasini egallashda amaliy tayyorgarlikning ustuvorligi; zamonaviy usullar va didaktik vositalar, shuningdek, axborot-kommunikasion texnologiyalar va simulyatsion dastur vositalarining imkoniyatlaridan samarali foydalanish; bo'lajak rezerv va zaxiradagi ofitserlarning texnologik kompetentligini takomillashtirishda o'quv-tarbiyaviy jarayonni ijodiy texnologik jarayon bilan almashtirish; bo'lajak rezerv va zaxiradagi ofitserlarning texnologik kompetentligini takomillashtirish texnologiyasining barcha bosqichlarida uzluksiz tashxis tadbirlarini amalga oshirish muhim vazifalardan hisoblanadi.

Texnologik kompetentlik innovatsion yondashuv asosida o'qitishning dolzarbligining ilmiy asoslari ta'limni insonparvarlashtirish kontsepsiyasini, o'qitishda mualliflik uslub, shaxsga yo'naltirilgan ta'limni joriy etish, ta'limda rasmiyatchilikni bartaraf etish, talabalarning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirish shart-sharoitlarini yaratish, hozirgi zamon jamiyatining ijtimoiy-madaniy ehtiyojlarining talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatiga mosligini ta'minlash bilan izohlanadi.

**Xulosa:** Yuqoridagilarga asoslanib, bo'lajak rezerv va zaxiradagi ofitserlarning texnologik kompetensiyalarni rivojlantirish amaliy faoliyatning har xil turlarini o'zlashtirish bilan bog'liq deb quyidagilarga asoslanib aytish mumkin: o'quv mashg'ulotlari mazmuniga materiallarni qayta ishlashning turli texnologiyalarini joriy etish; o'quv jarayonini o'qituvchining rahbarligida talabaning mustaqil ishlashiga ustuvorlik berish asosida amalga oshirish; o'quvchilarning amaliy faoliyatini

texnologiyalar va buyumlarni tayyorlashni o'rganish jarayonlarining birligi asosida tashkil etish; mashg'ulotlar harbiy texnika qurol aslaha bilan ishlashning individual va jamoa shakllarini birgalikda qo'llash; o'qitish metodlarini tinglovchilarning mustaqil faoliyatini faollashtirishga yo'naltirish; talabalarda harbiy texnika va qurol-aslahada ishlash usullarining muqobillarini izlashga qiziqish uyg'otish va uni rivojlantirish metodlarini qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Yuqorida sanab o'tilgan texnologiyalar oliy ta'lim tizimi ichida kechadi, lekin bu tizim faoliyatini samarali bo'lishi uchun uni o'rab turgan muhit, talab darajasida bo'lishi zarur.

#### **Adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Xavfsizlik kengashi majlisidagi "Qurolli kuchlarimiz mamlakatimiz barqarorligi va taraqqiyotining mustahkam kafolatidir" mavzusidagi nutqi // Xalq so'zi. - T., 2018. 3-son.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

3. Ahrorov S. Yu. Harbiy xizmatchilar shaxsida deviant xulq namoyon bo'lishining ijtimoiy xususiyatlari: Sots. fanl. nomz.... Dis. T.: O'zMU, 2008. - 180 b.

4. Eshnaye N.J. O'zbekiston Respublikasida professional harbiy kadrlarni tayyorlashning ijtimoiy-falsafiy asoslari: Fals. fanl. nomz. Dis. T.: I.Mo'minov nomidagi Falsafa va huquq instituti, 2008. 164 b.